



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 9-yanvar

6-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvarda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish sohalaridagi strategik tahlil va tadqiqot qilish faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 31-dekabrda PQ–467-son qarori ijrosi haqida”gi 8-6-0-Q/25-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy rivojlanish sohalaridagi strategik tahlil va tadqiqot qilish faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 31-dekabrda PQ–467-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvarda 8-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21<sup>1</sup>-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 8-yanvarda 8-6-0-Q/25-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 31-dekabrda PQ–467-son qarori bilan:

Tahliliy va tadqiqot tuzilmalar faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o‘rinlarda Muvofiqlashtiruvchi kengash) tashkil etilganligi va uning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

Muvofiqlashtiruvchi kengash ichki va tashqi siyosat jarayonlari bo‘yicha strategik tadqiqotlarni tashkil qilish hamda ularni o‘tkazishning barcha jarayonlarini muvofiqlashtirish masalalariga mas‘ul bo‘lgan maslahat organi hisoblanishi;

Muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, umumiy muvofiqlashtirish hamda idoralararo hamkorlikni ta‘minlashi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Maxsus topshiriqlar bo‘yicha maslahatchisi tomonidan amalga oshirilishi;

Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan asosiy vazirlik va idoralar tahliliy bo‘linmalarining (departament, boshqarmalar) faoliyati muvofiqlashtirilishi;

respublikani rivojlantirish bo‘yicha strategik tashabbuslar loyihalarini ishlab chiqishga jalb qilingan asosiy vazirlik va idoralar rahbarlarining birinchi o‘rinbosarlari tadqiqot markazlarini axborot-tahliliy materiallar bilan ta‘minlashi hamda Muvofiqlashtiruvchi kengash bilan hamkorlik qilishga mas‘ul bo‘lishi;

Muvofiqlashtiruvchi kengashning yig‘ilishlari har chorakda oraliq majlislar shaklida tashkil etilishi;

Muvofiqlashtiruvchi kengash tuzilmasida yo‘nalishlarga mas‘ul bo‘lgan ishchi guruhlar 2-7-ilovalardagi tarkibga muvofiq tashkil qilinganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq:

a) Muvofiqlashtiruvchi ta‘minlash yo‘nalishida: kengashning tahliliy faoliyatini ishchi guruhlar o‘zlari mas‘ul bo‘lgan yo‘nalishlarda mavjud tizimli muammo va kamchiliklarni tahlil qilishi, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosa va takliflarni har chorak yakuni bilan Muvofiqlashtiruvchi kengashga taqdim qilishi;

Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan ma'qullangan xulosa va takliflar O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdim qilinishi;

b) ilmiy va amaliy tadqiqotlarni tashkil qilish bo'yicha buyurtma berish tizimini joriy qilish yo'nalishida:

Muvofiqlashtiruvchi kengashning takliflari asosida mamlakatning ichki rivojlanishi va tashqi siyosiy faoliyatining aniq masalalari bo'yicha ilmiy va amaliy tadqiqotlarni tashkil qilish maqsadida ilmiy asoslangan va talabgir taklif va tashabbuslarni ishlab chiqqan holda buyurtma portfeli shakllantirilishi;

buyurtma portfeli asosida ilmiy va amaliy tadqiqotlarni tashkil qilish bo'yicha tadqiqot va tahliliy markazlar o'rtasida tanlov o'tkazilishi;

tadqiqot va tahlil ishlariga shartnoma asosida mustaqil ekspertlar va fuqarolik jamiyati vakillari, shuningdek, xorijiy olim-ekspertlarni (siyosatshunoslar, iqtisodchilar, huquqshunoslar, ekologlar va boshqalar) jalb etish uchun tadqiqot va tahliliy markazlarga grant mablag'lari ajratilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari – Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**